

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53409-3.20

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**BOSHQARUV HISOBI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340900 - "Buxgalteriya
hisobi va audit" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: prof. Xasanov B. A.,
k.o'q. Maxmudov A. N.,
k.o'q. Rizaev N. Q.

Taqrizchilar: dots. Mamatov Z. T.,
dots. Norbekov D. E.

Respublikamizda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va yuritishni zaruriyati tug'ilmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda buxgalteriya hisobi moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'lib olib borilmoqda.

"Boshqaruv hisobi" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari tomonidan qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi. Dasturda jami oltita bo'lim mavjud, bo'lib ularda "Boshqaruv hisobi" fanining maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi, DTSga muvofiq bilim va ko'nikmalar, amaliy va seminar darslari bo'yicha yuklamalar miqdori, kompyuter va informatsion texnologiyalarni qo'llash, fan dasturi, amaliy va seminar mashg'ulotlari, kurs ishi mavzulari ro'yxatlari, tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'quv filmlari va boshqa didaktik materiallar ro'yxati, talabalarning o'zlashtirishini reyting asosida baholash xususiyatlari nazorati hamda adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

Необходимость организации и ведения системы бухгалтерского учета на основе международных стандартов в Узбекистане требует изучения студентами вузов дисциплины "Управленческий учет".

Типовой учебный план по "Управленческому учету" составлен согласно требованиям Государственных образовательных стандартов Республики Узбекистан. Программа состоит из шести разделов.

В этих разделах освещены цели, задачи, взаимосвязь науки с другими дисциплинами науками, требования к знаниям и навыкам студента согласно ГОС Р.Уз., количество часов учебной нагрузки для лекционных, практических занятий и самостоятельных работ, рекомендуемые компьютерные и информационные технологии, наглядные материалы, учебные фильмы и другие дидактические материалы, в том числе порядок оценки знаний студентов в системе рейтингового контроля, список литературы.

Need to organizations and conduct of the system of the accounting on base international standard in Uzbekistan requires the studies of discipline "Management account" student high school.

The Standard curriculum on "Management account" is formed according to requirements State educational standard Republics Uzbekistan. In him there are six sections.

In these sections to lit purposes, problems, intercoupling the science with the other science, requirements to knowledges and skill of the student according to R.UZ., amount hours scholastic load for lecture, practical occupation and independent work, recommended computer and information technologies, demonstrative material, scholastic films and other didactic material, including order of the estimation of the knowledges student in system checking, list of the literature.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Prezidentimizning "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish va barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risidagi" Farmonida (06.10.97) "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni hayotga tadbqiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalish ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli Qarori bilan Davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi. Mazkur standartlar bo'yicha har bir o'qitiladigan fanlardan namunaviy dasturlar tayyorlash zaruriyati tug'ildi. "Boshqaruv hisobi" fani bo'yicha ushbu dastur qo'yilgan barcha talablar asosida tuzilgan.

O'quv faniing maqsadi va vazifalari hamda uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

Fanni o'rganishdan maqsad bo'lg'usi mutaxassislarda tadbirkorlik faoliyatida boshqaruv hisobini tashkil qilish, korxonani tezkor boshqarish, ish faoliyati natijalarini baholash va tezkor nazorat qilish, rejalashtirish hamda korxonani rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy bilimlarni va amaliy tajribani shakllantirishdan iboratdir.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq "Buxgalteriya hisobi va audit" bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun boshqaruv hisobi fanini o'rganadilar. Korxonalarining xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining harakatini, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, korxonani va xo'jaliklarning mulkiy, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarini shakllantirish hamda

hisobotlarni tuzish, mamlakatimiz korxonalarida buxgalteriya hisobi yordamida shakllanadigan davriy, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini haqqoniyligini ta'minlashni hamda mahsulotlar tannarxiga qo'shiladigan va qo'shilmaydigan xarajatlarni bir - biridan ajratib hisobga olishni o'rganadi.

"Boshqaruv hisobi" fani korxonalarining mulkiy va moliyaviy faoliyatini hisobga olishda o'zining usul, uslubiyatiga ega bo'lishi bilan birgalikda faoliyatini yuritishda quyidagi fanlar bilan bevosita bog'liqligi sababli, bu fanlar ham talabalarga chuqur o'rgatiladi: "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Audit", "Moliyaviy hisob", "Iqtisodiy tahlil", "Moliya", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Pul, kredit va banklar", "Menejment", "Marketing", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Sug'urta ishi", "Kichik biznes va tadbirkorlik".

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

Mazkur bakalavriat yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar boshqaruv hisobi fanini chuqur o'rganishi hamda etuk mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi talablar quyiladi:

- huquqiy davlatning yoshlari, ayniqsa, buxgalter, auditor mutaxassisligini egallovchi talabalar huquqshunoslik, davlat va jamiyat qurilishi fanlarini chuqur egallagan bo'lishi;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarini hamda qonunlarini mukammal o'rganishi;
- milliy g'ururga, yuqori madaniyatga ega bo'lishi, o'zbek xalqining tarixini bilishi;
- mutaxassislik fani bilan bog'liq bo'lgan fanlarni mukammal o'rganishi;
- fan va texnika yutuqlariga qiziquvchan, o'ziga talabchan, o'rganayotgan faniga, o'z vataniga fidoyi bo'lishi kerak.

Fanni o'rgatishda mutaxassislik kafedra o'qituvchilari talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishi, har bir talabaning bilim saviyasini e'tiborga olib, ularni qiziqtirishi, individual (yakka tartibda) xarakteriga qarab qo'shimcha vazifalar berishi hamda ularning ijrosini nazorat qilish san'atiga ega bo'lishi kerak.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyot uzviyligiga erishish, talabaning mustaqilligini ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etishi lozim. Ko'proq talabalarning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish maqsadga muvofiq.

Fanni o'qitishda kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarni qo'llash

Talabalarga zamonaviy usulda fanni o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- talaba o'z bilimini o'zi baholaydigan sharoitni yaratib berish;
- talabalarning bilimini tayanch iboralari asosida baholashni joriy qilish;
- talabalarni kichik guruhlariga bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- iqtidorli talabalar bilan ularni qiziqtiruvchi mavzular bo'yicha qo'shimcha darslar tashkil qilish va h.k.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Boshqaruv hisobi" fani talabalarga o'quv rejasi bo'yicha VI va VII semestrlarda o'qitiladi.

Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun talabalar korxonada va xo'jaliklarda amaliyot o'taydilar. O'quv jarayonida auditoriyada va amaliyotda olgan bilimlari o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholanadi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

"Boshqaruv hisobi" fanini o'rganish uchun o'quv rejasida jami 72 soat ajratilgan. Shundan: ma'ruza 36, amaliy mashg'ulot 36 soat. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'qituvchilar rahbarligida auditoriyada yoki uy ishi sifatida dasturda belgilangan mavzular bo'yicha adabiyotlardan foydalangan holda talabalar tomonidan uyda bajariladi.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining namunaviy mavzusi

Boshqaruv hisobining nazariy asoslari

Boshqaruv hisobi va uning mazmuni. Boshqaruv hisobining predmeti va metodi. Boshqaruv hisobining vazifalari. Boshqaruv hisobini tashkil qilish muammolari. Boshqaruv hisobini boshqaruvchilarni iqtisodiy axborotlar bilan ta'minlashdagi roli. Boshqaruv hisobining tamoyillari. Boshqaruv va moliyaviy hisobning o'zaro bog'liqligi. Boshqaruv hisobini tashkil etishning xuquqiy asoslari. Boshqaruv hisobi ma'lumotlarining tavsifi va ularni saqlash tartibi. Boshqaruv hisobini amalga oshiruvchi buxgalter-tahlilchining funktsiyalari. Boshqaruv hisobini tashkil etishning korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi.

Xarajatlarning turkumlanishi va hisobi

Xarajatlar haqida tushuncha. Xarajatlar hisobi usullarining evolyutsiyasi. *Xarajatlarning turli xil belgilarga ko'ra turkumlanishi.*

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda texnologiyani ta'siri. Texnologik jarayonga qarab ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish. Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy, yordamchi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil qilish. *Boshqaruv hisobi schetlar rejasi.* Servis xarajatlarini taqsimlash. Xarajatlarni hisobga olishni tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha tashkil qilish. Xarajatlarni hisobga olishni javobgarlik markazlari bo'yicha tashkil qilish. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha tannarxga qo'shiladigan xarajatlarni umumlashtirish va ularni taqsimlash. Mahsulot tannarxini aniqlash, xarajatlar va zahiralar qiymatini hamda olingan foydani baholash maqsadida xarajatlarni turkumlash.*

Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini kalkulyatsiya qilish

Mahsulot tannarxining tarkibi va turlari. Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati. Kalkulyatsiyaning tamoyillari, ob'ekti va usullari. Jarayonli, bo'linmali, buyurtmali tannarx hisoblash usullari. To'liq tannarx va ishlab chiqarish tannarxini hisoblash. Bevosita xarajatlarni mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga qo'shish. Bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxi tarkibida hisobga olish. *Xaqiqiy va normativ usullar bo'yicha xarajatlar hisobi va tannarx hisoblash. "Standart kost" va "Direkt kosting" usullari.*

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish. Sotiladigan mahsulot (tovarlar) assortimentini rejalashtirish. Bahoni shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish. Korxonada mahsulot tarkibini chegaralovchi omillar asosida aniqlash. *Biznes tarkibini o'zgartirish (restrukturizatsiya) qilish bo'yicha qaror qabul qilish.*

Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish

Boshqaruv hisobi tizimida rejalashtirish. Ishlab chiqarish va savdo korxonalarining Bosh byudjeti. Xo'jalik faoliyatini tahlil va nazorat qilish. Javobgarlik markazlari va xarajatlarning kelib chiqish joylarini nazorat qilish.

Boshqaruv hisobini tashkil etish

Boshqaruv hisobini tashkil etish variantlari: avtonom va integratsiyalashgan. Boshqaruv va moliyaviy hisob schetlar rejalarida xo'jalik muomalalarini qayd etish

tizimlari. Sanoat korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llash. Savdo korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llash xususiyatlari.

Transfert bahoni shakllantirish

Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari: bozor narxi va xarajatlar miqdori bo'yicha baholash, uning afzalliklari va kamchiliklari, transfert baholarni o'rnatish usublari. *Sanoat, savdo va bank tizimida transfert bahoni shakllantirish.*

Korxonaning segmentar hisoboti

Segmentar hisobotining mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish qoidalari. Tashqi foydalanuvchilar uchun segmentar hisobotni tuzish qoidalari. Ichki segmentar hisobotni tuzilishi shartlari va tamoyillari.

Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida. Moliyaviy va boshqaruv hisobida biznes samaradorligini baholashga yondoshuvlar. Javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning moliyaviy va nomoliyaviy mezonlari.

Segmentar hisobot axborotlarini korxonada faoliyatida qo'llash imkoniyatlari. Korxonani tarkibiy tuzilishi samaradorligi tahlili. Segmentar hisobot tuzish bosqichlari va uning vazifalari. Javobgarlik markazlari faoliyatini byudjetlashtirish va baholash.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA HISOB ISHLARI, KURS (LOYIHA) ISHLARI MAVZULARINING RO'YXATI

Amaliy va seminar darslarining ro'yxati

Boshqaruv hisobining nazariy asoslari

Boshqaruv hisobining predmeti va metodi.* Boshqaruv hisobini boshqaruvchilarni iqtisodiy axborotlar bilan ta'minlashdagi roli. Boshqaruv hisobining tamoyillari.* Boshqaruv hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari. Boshqaruv hisobini amalga oshiruvchi buxgalter-tahlilchining funktsiyalari.

Xarajatlar turkumlanishi va hisobi

Xarajatlarni turli xil belgilarga ko'ra turkumlanishi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda texnologiyani ta'siri.* Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy, yordamchi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar bo'yicha hisobga olishni tashkil qilish. Xarajatlarni hisobga olishni tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha tashkil qilish. Mahsulot tannarxini aniqlash, xarajatlar va zahiralarni qiymatini hamda olingan foydani baholash maqsadida xarajatlarni turkumlash.*

Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini kalkulyatsiya qilish

Kalkulyatsiyaning tamoyillari, ob'ekti va usullari. Jarayonli, bo'linmali, buyurtmali tannarx hisoblash usullari. Bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxi tarkibida hisobga olish. Xaqiqiy va normativ usullar bo'yicha xarajatlar hisobi va tannarx hisoblash.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Bahoni shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish.* Korxonada mahsuloti tarkibini chegaralovchi omillar asosida aniqlash. Biznesni tarkibini o'zgartirish (restrukturizatsiya) qilish bo'yicha qaror qabul qilish.

Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish

Boshqaruv hisobi tizimida rejalashtirish.* Xo'jalik faoliyatini tahlil va nazorat qilish. Javobgarlik markazlari va xarajatlarning kelib chiqish joylarini nazorat qilish.*

Boshqaruv hisobini tashkil etish

Boshqaruv hisobini tashkil etish variantlari: avtonom va integratsiyalashgan.* Sanoat korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llash. Savdo korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llash xususiyatlari.*

Transfert bahoni shakllantirish

Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari: bozor narxi va xarajatlar miqdori bo'yicha baholash, uning afzalliklari va kamchiliklari, transfert baholarni o'rnatish usullari.* Sanoat, savdo va bank tizimida transfert bahoni shakllantirish.

Korxonaning segmentar hisoboti

Tashqi va ichki segmentar hisobotlarni tuzilishi shartlari va tamoyillari.

Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida.* Javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning moliyaviy va nomoliyaviy mezonlari.

Segmentar hisobot axborotlarini korxonada faoliyatida qo'llash imkoniyatlari.* Segmentar hisobot tuzish bosqichlari va uning vazifalari.

O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishning rivojlanish yo'nalishlari

Buxgalteriya hisobining Respublikamizda rivojlanish yo'nalishlari: buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob va boshqaruv hisobiga ajratish, boshqaruv hisobini tarmoq xususiyatini hisobga olgan holda tashkil qilish, boshqaruv uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganish va tahlil qilish, tarmoq xususiyatini har

tomonlama o'rganish asosida xarajatlarni vujudga kelish markazlari va mas'uliyat markazlarini shakllantirish, boshqaruv hisobini qulay tashkil qilish maqsadida xarajatlarni korxonaga bo'yicha, uning bo'limlari, vujudga kelish markazlari, mas'uliyat markazlari bo'yicha guruhlash va boshqalar.* Respublikamizda amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarning boshqaruv hisobini tashkil qilishga ta'siri. Ularning boshqaruv hisobini tashkil qilish imkonini beradigan moddalarini.

Kurs (loyiha) ishlarining namunaviy mavzusi va bajarilishiga uslubiy ko'rsatmalar

Kurs (loyiha) ishi mavzulari

1. Boshqaruv hisobining mazmuni va ahamiyati.
2. Boshqaruv hisobining nazariy asoslari.
3. Xarajatlar va ularning turkumlanishi.
4. Ishlab chiqarish zahiralari va ularni turkumlash.
5. Mahsulotni sotish va u bilan bog'liq xarajatlar.
6. Boshqaruv nazorati va uning vazifalari.
7. Ichki hisobot tizimi.
8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining roli.
9. Korxonaning segmentar hisobotini tuzish tartibi va tamoyillari.
10. Transfert baholar va boshqaruv hisobida ulardan foydalanish.
11. Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobining o'рни va vazifalari.
12. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobini isloh qilish.
13. Boshqaruv hisobining tamoyillari.
14. Boshqaruv hisobi, uning roli va vazifalari.
15. O'zbekiston Respublikasida xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga o'tish muammolari.
16. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.
17. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish.
18. To'g'ri va egri xarajatlar hisobi.
19. Davr xarajatlari hisobi.
20. Ishlab chiqarish xarajatlarini normativ usulda hisobga olish va tannarx hisoblash.
21. g'rdamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil qilish.
22. Tayyor mahsulotlar hisobi.
23. Mahsulotlarni sotish hisobi.
24. To'g'ri soliqlar yuzasidan hisoblashishlar hisobi.
25. Egri soliqlar bo'yicha hisoblashishlar.
26. "Direkt-Kosting" va "Standart-Kost" tannarx aniqlash tizimlarining xususiyatlari.
27. Boshqaruv hisobida qaror qabul qilish jarayoni.

28. Korxonaning zararsizlik nuqtasini tahlil qilish.
29. Boshqaruv hisobi tizimida byudjetlashtirish.
30. Boshqaruv hisobida tahlil va nazorat.
31. Kapital qo'yilmalar bo'yicha qarorlarni iqtisodiy asoslash.
32. Javobgarlik markazlari bo'yicha byudjetlashtirish va nazoratni tashkil etish.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Mustaqil o'rganish uchun mavzular

- Ishlab chiqarish zahiralari va ularni turkumlash.
- Mahsulotni sotish va u bilan bog'liq xarajatlar.
- Boshqaruv nazorati va uni vazifalari.
- Ichki hisobot tizimi.
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv hisobining roli.
- Xo'jalik sub'ektlarida Boshqaruv hisobining o'rni va vazifalari.
- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobini isloh qilish.
- Boshqaruv hisobining tamoyillari.
- Boshqaruv hisobining roli va vazifalari.
- Segmentar hisobot va boshqaruv hisobi.
- Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish, tahlil va nazorat.
- O'zbekiston Respublikasida xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga o'tish muammolari.
- O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.

Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Auditorlar palatasi, Milliy Buxgalterlar va Auditorlar Assosiatyasi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedik ilovalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Boshqaruv hisobi fanini o'rganishda talabalar amaliy yordam tariqasida boshqaruv hisobi bo'yicha qo'llaniladigan turli xil shakl, chizmalar, slaydalar bilan ta'minlanadi. Unda xarajatlarni turkumlash, o'zgaruvchi va o'zgarmas xarajatlar, kalkulyatsiya usullari, to'g'ri va egri xarajatlar, "Direkt-kosting" va "Standart-kost" usullarida xarajatlarni hisobga olish tartibi, mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlari, davr xarajatlari, diskret xarajatlarni o'rganishi mumkin.

Talabalar boshqaruv hisobi fanini o'rganishda axborot vositalaridan ya'ni internet tizimidagi quyidagi sayd va elektron pochталardan ham keng foydalanadilar.

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board);
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office);
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom);
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee);
5. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants).

Shuningdek respublikadagi chop etilgan gazeta va jurnallardan mutaxassislikka tegishli materiallar olinadi.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejasida jami 72 soat dars o'tish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 36 soat ma'ruza, 36 soat amaliy mashg'ulotlardan iborat. O'quv jarayoni davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 72 ga teng. Yozma ish variantlar bo'yicha tuzilib, u o'quv dasturiga to'liq mos kelishi ta'minlanadi va reyting tizimi asosida baholanadi.

Yozma ish variantlarini baholash mezonlari kafedra majlisining bayonnomalari bilan tasdiqlanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. Toshkent - 1996.
2. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risidagi Nizom. Toshkent - 1999.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5-son buyrug'i (1997 yillik va yarim yillik hisoboti to'ldirish to'g'risida). Bobojonov O.U. Moliyaviy hisob. – T.: Mehnat, 1999.
4. Bobojonov O.U. Moliyaviy hisob. - T.: Mehnat, 1999.
5. Rizaqulov A.A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi. – T.: Fan, 1998.
6. Rizaqulov A.A., Ibrohimov A.K., Hasanov B.A., Usanov A.U., Mamatov Z.T. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. I-III tom. TMI va IUT, 1994.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari. 1995-1999 yillar.
8. Druri K. Vvedenie v upravlencheskiy i proizvodstvenniy uchyot. – M.: Audit, 1994.
9. Karpova T.P. Osnovi upravlencheskogo uchyota: Uchebnoe posobie. – M.: INFRA-M, 1997.

10. Myullendorf R., Korrenbauer M., Proizvodstvenniy uchet. – M.: ZAO "FBK" press, 1996.
11. Paliy V.F. Upravlencheskiy uchet. – M.: Soyuzaudit, 1997.
12. Xonrgren Ch.T. Foster Dj. Buxgalterskiy uchet: upravlencheskiy aspekt. – M.: Finansi i statistika, 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. "Mulkchilik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. Toshkent - 1992.
2. "Korxonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. Toshkent - 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent - 1997.
4. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchet dlya predprinimateley. - M.: O.O.O Askeri, 1996.
5. Nikolaeva S.A. Osobennosti ucheta zatrat v usloviyax rinka: sistema "direkt kosting". – M.: Finansi i statistika, 1993.
6. Nidlz B., Anderson X., Kolduell D. Printsipi buxgalterskogo ucheta. - M.: Finansi i statistika, 1993.
7. Entoni R. Ris D. Uchet: situatsii i primeri. – M.: Finansi i statistika, 1993.
8. Soliq va Bojxona xabarleri gazetasi, 2001-2003 yillar soni.
9. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali, 2000-2003 yillar.
10. G'ulomova F. Samouchitel po buxgalterskomu uchetu. - T.: "Mir ekonomiki i prava", 2000.
11. Ibragimov A., Karimov A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi, - T.: O'zbekiston, 1999.
12. Pankov D. Buxgalterskiy uchet i analiz v zarubejnix stranax. - Mn: Ekoperspektiva, 1998.
13. Nikolaeva O. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti, - M.: URSS, 2001.
14. Chaya V., Chaya G. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti, GUP IPK Ulyanovskiy Dom pechaty, 2000.
15. Vaxrushina M.A. Buxgalterskiy upravlencheskiy uchet. Uchebnyk dlya Vuzov. 2-e izd., - M.: IKF Omega-L; Vissh. shk., 2002.